

KOREYS TILIDAGI IBORALARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR

H.U.Xushvaktova. Koreys filologiyasi kafedrasi magistri
Sh. K. Eshimova. Koreys filologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Har bir xalqning tili ma'naviy va moddiy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishda ulkan rol o'ynaydi. Shuning uchun talablar chet tillarini o'rgatish, tilni o'zlashtirib, inson bir vaqtning o'zida yangi milliy madaniyatga kirib boradi va tilda saqlanadigan ulkan boylikni oladi.

Maktab va oliy o'quv yurtlarida talabalarga mukammal ta'lif berish imkoniyatlari endi kengaymoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni biladigan kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ko'plab asarlarni xorijiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga tarjima qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu qisqa vaqt ichida jahon adabiyotining ko'plab asarlari rus va o'zbek tillariga tarjima qilindi. Bu jarayonda O'zbekistonda tarjima juda muvaffaqiyatli bo'ldi, tajriba muhim bo'ldi, ko'plab professional tarjimonlar yetishib chiqdi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda sharq tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chet tillarni, jumladan, frazeologik birliklarga ayniqsa boy koreys tilini yaxshi bilish, uning frazeologiyasini bilmasdan turib mumkin emas. Tarjimonlar tarjima jarayonida tilning madaniy xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar, ya'ni o'rganilayotgan tilda muqobili bo'limgan ba'zi so'zlar, iboralar va idiomalarning ma'nosini topishda muammolar kabi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Frazeologizm deganda, birinchidan, turg'un iboralar, ikkinchidan, turg'un iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi tushuniladi. Biroq, A.V.Kninning fikricha, "Frazeologiya so'z birikmasidir, ya'ni, komponentlar, frazeologik ma'nolar tomonidan to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqilgan alohida shakllangan formalar. Frazeologik birliklar bilan xarakterlanadi.

Biz tarjimada uchraydigan bazi bir iboralarni tarkibidagi asosiy so'zlarni 눈, 머리, 귀, 손, 입 kabilarni ko'rib chiqamiz.

Frazeologizmlar ham jismoniy holatlarni, ham turli ruhiy holatlarni ifodalaydi. Koreys tili somantik frazeologizmlarning kattagina qismi insonning turli holatlarini ifodalash bilan bog'liq.

'귀'- so'zi tananing bosh qismida joylashgan eshitish azosi bo'lib qulq deb tarjima qilinadi. Lekin ushbu so'z iboralarda kelganda to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinish holati kam uchraydi. Ko'chma ma'noda kelgan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz.

'귀가 앓다' – qulog'i yupqa – deb tarjima qilinib bu albatta ko'chma manoga egadir. Gap tarkibida ushbu iboraning tarjimasi 'ishonuvchan' degan ma'noga ega.

~귀가 앓은 지수는 장사꾼의 장삿속에 또 넘어가서 엉뚱한 물건을 사 왔다.

~Ishonuvchan Chisu sotuvchining gapiga ishonib nomaqbul narsani sotib olib keldi.

~저는 귀가 너무 앓아서 큰일이에요

~Bu katta muammo, chunki men ishonuvchanman.

~그 사람은 귀가 앓아서 속이기 쉬워요

~Bu odam ishonuvchanligi uchun uni aldash oson.

~귀가 너무 많아서 사기 당한 적이 많아요.

~Men juda ishonuvchanligim sababli meni ko'p aldashadi.

Bu iboralarda ko'rishimiz mumkinki eshitish azosi bo'lgan qulqoq so'zi butunlay boshqa tarjimani beradi. Tarjimada harakatlanuvchi shaxsni o'ta ishonuvchanligi aks etgan. Biz koreys tilidagi iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilayotganimizda uchraydigan qiyinchiliklardan yana biri, bu tarjimonning keng fikrlay olishidir. Agar tarjimon ko'p so'z boyligiga ega bo'lib keng fikrlay olsa tarjimada bir ikki so'zni tarjimasidan kelib chiqib ham tarjimalarni oson tarjima qila oladi. Koreys tilida biror so'z, harakat, biror kishining hulq-atforiga, shuningdek, borliqdagi biror hodisa, ko'rinishiga nisbatan inson reaksiyasini uyg'otadigan holatlar bilan bog'liq frazeologizmlar ko'p. Bular xafa, g'azablangan insonning emotsiyonal holatni aks ettiradi. Bunday frazeologizmlarga quyidagilar misol bo'ladi: 귀에 걸리다 (qulqqa ilinmoq) “qulog“ida qolib ketmoq (eshitgan narsasi”); 귀에 못이 박히다 (qulqqa mix qoqmoq) “boshqa eshitishni xoxlamaslik, bir so'z bir necha bor takrorlangani bois”; 혀를 차다 (tilini taqillatmoq) “yoqtirmaslik, norozi bo'lmoq; 입이 빠죽하다 (og'zi tez) “norozilikni ifodalamoq”; 입이 쓰다 (og'zi achchiq) “yoqtirmaslik, yoqimsiz bo'lmoq”.

“눈”

- 1) ko'rish azosi, ko'z soqqasi;
- 2) ko'rish, ko'rish qobiliyat;
- 3) predmetni ko'rish fikrlash kuchi;
- 4) ko'radigan shakl yoki inson xulqi;
- 5) qarash, nazar;
- 6) ko'z (markazi) degan ma'nolarni beradi, bu albatta so'zning asl ma'nolaridir.

Biz quyida berilgan misollar bilan shu so'zning frazeologik ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Quyida berilgan iboralar nafaqat bir so'z bilan balki ikki so'zdan iborat bo'lib qo'shma so'zlardan tashkil topgan frazeologik iboralar hisoblanadi.

1. 눈길을 끌다~Diqqatni jalb qilish.

그 사람은 화려한 옷으로 눈길을 끌었다.

~Bu odam o'zining yorqin kiyimlari bilan etiborni tortdi

사람들의 웃음 소리가 눈길을 끌고 있다.

~Odamlarning kulgusi diqqatni tortdi.

나는 다른 사람들의 눈길을 끄는 것이 부담스러워요.

~Boshqa odamlarning etiborini jalb qilish orqali o'zimni og'ir his qilaman.

2. 눈 밖에 나다~nazardan qolish

부장님 눈 밖에 나서 좋을 게 뭐야.

~Rahbarning nazaridan qolishning nimasi yaxshi.

어른들 눈 밖에 나지 않게 조심해.

~Kattalarning nazaridan qolishdan ehtiyyot bo'l.

난 이미 눈 밖에 난 사람이라 상관 없어요.

~Men allaqachon nazardan qolgan kishiman, menga endi farqi yo'q.

3. 눈도 깜짝하지 않다~Hatto ko'zni pirpiratmaslik.

저는 어릴 때 엄마가 화를 내도 눈도 깜짝하지 않았대요.

~Men yoshligimda onam jahl qilganlarida ham ko'zimni pirpiratmasdim.

~너한테 무슨 말을 해도 눈도 깜짝하면 안 돼.

~Senga nima deyishsa ham miq etmasliging kerak.

Bu guruhdagi frazeologik birliklar “biror narsa yoki odamga qarashni yo'naltirmoq” ma'nolariga ega. Masalan, 눈과 귀를 한데 모이다 (ko'z va quloqni bir joyga yig'moq) bir narsaga nisbatan qiziqish uyg'onmoq”, 눈을 맞추다 (tarafli bo'lmoq).” 1) bir-birining yuziga to'g'ri qaramoq, nazar tashlamoq; 2) ko'z tashlashib olmoq, bir-biriga ko'z qismoq”, 눈이 맞다 (qarashi to'g'ri kelmoq) “1) ko'zlar to'qnashuvi; 2) bir-birini yoqtirmoq”. Biror o'bektga nisbatan “tiklab yoki diqqat bilan qarash” ma'nosida keladigan frazeologik birliklar: 눈을 멈추다 (qarashni to'xtatmoq) “qiziqish bilan qaramoq”, 눈을 반짝거리다 (ko'zları chaqnamoq) “qiziqmoq”, 눈길을 끌다 (diqqatni jalb qilmoq “qiziqish uyg'otmoq”, 눈길을 주다 (nazar qaratmoq) “o'z maylini ifodalamoq”, 눈을 끌다 (qarashni jalb qilmoq) “qiziqish, e'tibor uyg'otmoq” 눈을 돌리다 (ko'zni yo'naltirmoq) “biror narsaga e'tibor, qiziqish qaratmoq”. Keltirilgan misollarda ko'rganimizdek, koreys tilida “눈” (ko'z) komponentli frazeologizmlar orqali “qiziqmoq” ma'nosni keng ifodalanadi [이상수. 한러사전. 러시아어문학사].

1. 입이 가볍다 ~ Og'zi yengil

~영수는 입이 가벼우니까 비밀 이야기는 안 하는 것이 좋아.

~Yongsu juda yengil og'iz odam, shuning uchun sirlarni aytmaganingiz ma'qul.

~그렇게 입이 가벼워서 어떡하니.

~Shunchalik og'zi bo'sh, qanday qilamiz.

2. 입에 침이 마르다 ~ Og'izda so'lagi qurimoq

영수를 모든 선생님들이 입에 침이 마르도록 칭찬한다.

~Yongsuni hamma o'qituvchilar og'zi quriguncha maqtaydi.

~부장님이 입에 침이 마르게 칭찬하는 사람이 바로 저 사람이야.

~Menejer ko'p maqtaydigan odam aynan o'sha kishidir.

~나도 누군가에게 입에 침이 마를 정도로 칭찬을 받아보고 싶다.

~ Men ham kimdandir og'zi quriydigan darajada maqtov eshitishni xohlayman

Yuqorida sanab o'tilgan frazeologik birliklar tarjimada juda qol keladi. Chunki badiiy adabiyotda bu birliklar so'zlarni jozibali tarjima qilishga yordam beradi.

Shular bilan birgalikda o'zbek tiliga tarjima qilingan “눈코 뜰 새 없다” iborasi “Burun va ko'zni ochishga ham vaqt yo'q” deb tarjima qilingan. Bu idioma odam juda band bo'lgan va bo'sh vaqt bo'lmaganda ishlatiladi.

Shuni xulosa qilib aytish joizki, tarjimon tarjimada iboralar ustida ishlashi uning tarjima sohasidagi bilimlarini yanada oshirishga va keng fikrlashga undaydi. Tillar

o‘rtasida iboralarni tarjima qilish qanchalik katta mashaqqat bo‘lmasin ularni til o‘rganishda shunchalik katta samara berishini bilmoq lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Чой Юн Хи. Проблемы со постановления внутренней формы фразеологизмов // язык сознание коммуникация. Выпуск 16. Москва Макс Прес. 2001
2. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. международный журнал искусство слова, 5(4).
3. A.S. Raximov A.A Raximov Tilshunoslik bilimlar tarixi.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка
5. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 356-364.
6. Koreys adibasi pak van so ijodining o'ziga xosligi xususida
7. 이상수. 한러사전. 러시아어문학사
8. Чой Юн Хи. Проблемы со постановления внутренней формы Фразеологизмов // язык сознание коммуникация. Выпуск 16. Москва Макс Прес. 2001. 2
9. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o'ziga xosligi xususida. Международный журнал искусство слова, 5(3).
10. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.